

# Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)

## Doimiy aholi soni.

Sirdaryo viloyati doimiy aholisi soni 2021 yil 1 aprel holatiga 864,1 ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan 3,1 ming kishiga yoki 0,4 % ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 368,1 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 42,6 %), qishloq aholisi soni 496,0 ming kishini (57,4 %) tashkil etdi.

E'tibor bering:  
2021 yil yanvar-mart

- Aholi soni **3,1 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **4,6 ming nafarni** tashkil etdi.
- **1,0 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **1,6 mingta nikoh** va **0,3 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

## Sirdaryo viloyati aholisining umumiyl o'sishi (2021 yil yanvar-mart oylarida)

**Tirik tug'ilganlar**  
**4,6 ming bola**

**Tabiiy o'sish**  
**+3,6**  
**ming kishi**

**Vafot etganlar**  
**1,0**  
**ming kishi**

**Aholining umumiyl o'sishi**  
**3,1**  
**ming kishi**

**Ko'chib kelganlar**  
**2,5 ming kishi**

**Mexanik o'sish (kamayish)**  
**-0,5**  
**ming kishi**

**Ko'chib ketganlar**  
**3,0 ming kishi**

**Hududlar kesimida doimiy aholi sonining o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi**  
**(2020-2021 yillar 1- aprel holatiga, ming kishi dastlabki ma'lumot)**

	2020 yil	2021 yil*	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>849,7</b>	<b>864,1</b>	<b>101,7</b>
Guliston sh.	91,0	91,8	100,9
Shirin sh.	18,8	18,9	100,5
Yangiyer sh.	43,6	44,5	102,0
tumanlar:			
Oqoltin	52,1	53,1	101,9
Boyovut	129,8	132,0	101,7
Guliston	72,8	74,6	102,5
Sayhunobod	77,4	78,7	101,7
Mirzaobod	73,7	75,5	102,5
Sardoba	66,1	67,2	101,6
Sirdaryo	128,7	130,4	101,3
Xovos	95,7	97,4	101,8


\*) dastlabki ma'lumot

Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2021 yil 1 aprel holatiga eng ko'p aholi soni Boyovut tumanida 132,0 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 15,3 % ni) va Sirdaryo tumanida 130,4 ming kishini (15,1 %), aksincha eng kam aholi soni Shirin shahrida 18,9 ming kishi (2,2 %) va Yangiyer shahrida 44,5 ming kishini (5,1 %) tashkil etdi.


Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2020 yilning mos davriga nisbatan Mirzaobod tumanida 2,5 % ni, Guliston tumanida 2,5 % ni, aksincha eng kam o'sish sur'ati Shirin shahrida 0,5 % ni tashkil etdi.

## Demografik holat

### **Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi** (2021- yil 1- aprel holatiga, ming kishi dastlabki ma`lumot)



### **Hududlar kesimida doimiy aholi sonining shahar va qishloqlarga bo`linishi** (2021- yil 1- aprel holatiga, foizda , dastlabki ma`lumot)




## Demografik holat

### **Jinsi bo`yicha doimiy aholi sonining bo`linishi** (2021- yil 1- aprel holatiga, ming kishi, dastlabki ma`lumot)

	erkak	ayol
<b>Sirdaryo viloyati</b>	433,9	430,2
Guliston sh.	46,0	45,8
Shirin sh.	9,2	9,7
Yangiyer sh.	22,2	22,3
<i>tumanlar:</i>		
Oqoltin	26,7	26,4
Boyovut	66,7	65,3
Guliston	36,8	37,8
Sayxunobod	39,3	39,4
Mirzaobod	39,3	36,2
Sardoba	34,1	33,1
Sirdaryo	64,9	65,5
Xovos	48,7	48,7

### **Hududlar kesimida aholi zichligi** (2021- yil 1- aprel holatiga, 1 kv kmga to`gri keladigan aholi)



## Demografik holat


**Tug'ilish.** 2021-yilning yanvar-mart oylarida 4,6 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 21,5 promilleni tashkil etib, 2020-yilning mos davriga nisbatan 0,7 promillega ko'paygan (2020-yilning yanvar-mart oylarida 20,8 promille bo'lgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2020-yilning mos davriga nisbatan Guliston tumanida (18,5 promilledan 22,3 promillega), Oqoltin tumanida (16,8 promilledan 22,5 promillega), Mirzaobod tumanida (20,4 promilledan 24,6 promillega) sezilarli o'sgan bo'lib, aksincha sezilarli kamayish Guliston shaharida (33,1 promilledan 22,6 promillega), Sardoba tumanida (21,9 promilledan 20,8 promillega) qayd etildi.

### Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yи 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

### Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti (2021-yil yanvar-mart)



**Sirdaryo viloyati bo`yicha tug`ilganlar soni, kishi  
(yanvar-mart)**


	2020-y.	2021-y.	O`sish sur`ati %da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>4379</b>	<b>4563</b>	<b>104,2</b>
<b>Guliston sh.</b>	746	509	68,2
<b>Shirin sh.</b>	64	60	93,8
<b>Yangiyer sh.</b>	255	245	96,1
<b>tumanlar:</b>			
<b>Oqoltin</b>	217	294	135,5
<b>Boyovut</b>	599	688	114,9
<b>Guliston</b>	334	409	122,5
<b>Sayxunobod</b>	395	392	99,2
<b>Mirzaobod</b>	373	457	122,5
<b>Sardoba</b>	359	344	95,8
<b>Sirdaryo</b>	629	668	106,2
<b>Xovos</b>	408	497	121,8

## Demografik holat

**Vafot etganlar.** 2021-yilning yanvar-mart oylarida 1,0 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,6 promilleni tashkil etdi, 2020-yilning mos davriga nisbatan tenglashdi. (2020-yilning yanvar-mart oylarida 4,1 promille bo'lgan).


O'lim koeffitsiyenti 2020-yilning mos davriga nisbatan sezilarli darajada o'sish Yangiyer shahrida (4,6 promilledan 5,5 promillega), Sayhunobod (3,7 promilledan 4,6 promillega), Sirdaryo (4,5 promilledan 5,5 promillega) tumanlarida kuzatilgan bo`lib, aksincha Mirzobod tumanida (3,6 promilledan 3,3 promillega) kamayish holati kuzatildi.

### Vafot etganlar



**Erkaklar:** 0,6 ming kishi  
**Ayollar:** 0,4 ming kishi

### Hududlar kesimida o'lganlar soni va koeffitsiyenti (2021-yil yanvar- mart)



**Sirdaryo viloyati bo`yicha o`lganlar soni, kishi  
(yanvar-mart)**


	2020 y.	2021 y.	O'sish sur`ati % da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>857</b>	<b>969</b>	<b>113,1</b>
Guliston sh.	111	118	106,3
Shirin sh.	21	20	95,2
Yangiyer sh.	50	60	120,0
<i>tumanlar:</i>			
Oqoltin	48	53	110,4
Boyovut	128	148	115,6
Guliston	83	81	97,6
Sayxunobod	71	90	126,8
Mirzaobod	65	62	95,4
Sardoba	55	60	109,1
Sirdaryo	144	176	122,2
Xovos	81	101	124,7

## Demografik holat

2021 yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 62,9 % i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 9,3 % i o'simtalardan, 8,9 % i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 6,5 % i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 3,2 % i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 1,3 % yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 7,9 % i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 43 nafarni tashkil etib, ularning 62,8 % i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 32,6 % i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 4,7 % i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

**Asosiy o'lism sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi**  
(jami vafot etganlarga nisbatan, % da)



**Nikoh.** 2021-yilning yanvar-mart oylarida FHDYO organlari tomonidan 1,6 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 7,3 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2020-yilning mos davriga nisbatan Mirzaobod tumanida (161,0 %), Guliston tumanida (140,7 %), Sardoba tumanida (140,5 %), ga sezilarli o'sgan bo'lib, aksincha eng yuqori kamayish sur'atlari Shirin shahri (89,5 %) ga to'g'ri kelmoqda.

### **Hududlar kesimida nikoh tuzganlar soni va koeffitsiyenti (2021-yil yanvar-mart)**

	<b>Nikoh tuzganlar</b>	<b>Nikoh koeffitsienti</b>
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>1557</b>	<b>7,3</b>
Guliston sh.	299	13,2
Shirin sh.	17	3,6
Yangiyer sh.	94	8,6
<i>tumanlar:</i>		
Oqoltin	96	7,3
Boyovut	199	6,1
Guliston	128	7,0
Sayxunobod	116	6,0
Mirzaobod	124	6,7
Sardoba	104	6,3
Sirdaryo	216	6,7
Xovos	164	6,8

### **Nikohdan ajralishlar.**

2021-yilning yanvar-mart oylarida FHDYO organlari tomonidan 0,3 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralganlik koeffitsiyenti 1,4 promilleni tashkil etdi.

Ajrimlar soni 2020-yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Yangiyer shahriga (125,0 %), Sayxunobod (125,0 %) va xovos (225,0 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

## Demografik holat

### Hududlar kesimida ajralganlar soni va koeffitsiyenti (2021-yil yanvar-mart)

	Ajrim	Ajrim koeffitsienti
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>303</b>	<b>1,4</b>
Guliston sh.	42	1,9
Shirin sh.	5	1,1
Yangiyer sh.	27	2,5
<i>tumanlar:</i>		
Oqoltin t.	18	1,4
Boyovut t.	38	1,2
Guliston t.	28	1,5
Sayhunobod t.	20	1,0
Mirzaobod t.	21	1,1
Sardoba t.	12	0,7
Sirdaryo t.	48	1,5
Xovos t.	44	1,8

### Sirdaryo viloyati bo'yicha tuzilgan nikohlar va ajrimlar soni, birlik (yanvar-mart)

	Tuzilgan nikohlar			Nikohdan ajralishlar		
	2020-y.	2021-y.	O'sish sur'ati % da	2020-y.	2021-y.	O'sish sur'ati % da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>1183</b>	<b>1557</b>	<b>131,6</b>	<b>309</b>	<b>303</b>	<b>1,4</b>
Guliston sh.	252	299	118,7	47	42	1,9
Shirin sh.	19	17	89,5	9	5	1,1
Yangiyer sh.	73	94	128,8	22	27	2,5
<i>tumanlar:</i>						
Oqoltin	77	96	124,7	17	18	1,4
Boyovut	148	199	134,5	50	38	1,2
Guliston	91	128	140,7	28	28	1,5
Sayxunobod	75	116	154,7	15	20	1,0
Mirzaobod	77	124	161,0	27	21	1,1
Sardoba	74	104	140,5	18	12	0,7
Sirdaryo	177	216	122,0	56	48	1,5
Xovos	120	164	136,7	20	44	1,8

**Migratsiya.** 2021-yil yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 2,5 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 3,0 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 0,5 ming kishi bo'lib, 2020-yilning mos davrida minus 0,1 ming kishi bo'lган.

### Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2020 yil yanvar-mart	2021 yil yanvar-mart
<b>Ko'chib kelganlar</b>	2,4	2,5
<b>Ko'chib ketganlar</b>	2,5	3,0
<b>Migratsiya saldosi</b>	-0,1	-0,5

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Boyovut tumanida (minus 0,2 ming kishi), Sirdaryo tumanida (minus 0,1 ming kishi) qayd etildi.

■ Ko'chib kelganlar ■ Ko'chib ketganlar

